

**IMPACT
FACTOR
9.2**



SEMANTIC SCHOLAR



BASE



Dimensions



Universiteit
Leiden

INDEX



COPERNICUS

INTERNATIONAL

Miasto Przyszłości

ISSN 2544-980X

www.miastoprzyszlosci.com

Open access
Indexed Research
Journal From
Poland



Miasto Przyszłości**ISSN-L:2544-980X****Table of Content - Volume 42**

No	Paper Title	Author Name	Page No
1	MANIFESTATION OF THE ALEXITHYMIA PHENOMENON IN HUMAN PSYCHOLOGY	Mustafayeva M.Sh.	1-3
2	DIABETIK RETINOPATIYANING DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	Odilov Mirshod Yusupovich	4-8
3	BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ESTETIK TARBIYA VOSITALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	Axmadiyev N.M., Axmadiyeva Y.	9-12
4	IT VA MUSHUK ZOOSEMIZMI O'ZBEK ASARLARI TALQINIDA	Toirova Umida Sobirovna	13-22
5	Ma'no Ko'Chish Turlarini Innovatsiya Va Integratsiya Asosida O'rganish Orqali O'Quvchilarning O'Quv-Ta'limiy Kompetensiyalarini Rivojlantirish	Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna	23-27
6	Суффиксальное Образование Имен Существительных, Обозначающих Лиц Мужского И Женского Пола В Русском И Узбекском Языках	Топволдиев К. А, Абдумаликова Нозанибону	28-30
7	Fitratning "Oila" Asarida Frazologizmlarning Qo'llanishi Va Semantik Xususiyatlari	D. S. Ne'matova	31-34
8	Features Of Working With Media Texts In German Classes	Dilnoza Buriyevna Nashirova	35-40
9	The Transition To A Green Economy Is An Urgent Issue Facing The Countries Of The World Today	Misirov Komoliddin Mamasabirovich	41-43
10	The Role Of Collaboration Technology In Foreign Language Classes In Higher Education Institutions	Dilnoza Buriyevna Nashirova	44-48
11	Xarajatlarni Hisobga Olish, Shuningdek, Tayyor Mahsulotlarni Hisobga Olish	Nabiyev Muzaffar Abdumalikovich , Nishonboy To'xtasinov	49-50
12	Проблемы Международных Культурных Связей И Роль Национального Искусства В Их Решении	Т.Д.Мухамедов	51-54
13	Faoliyat Xavfsizligini Ta'minlash Usullari Xususida	Axrarov Bobir Baxadirovich	55-57
14	Begali Qosimovning Jadid Matbuoti Masalasiga Yondashuv Mezonlari	Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna , Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna	58-63
15	Нутқий Жанрларнинг Таснифи Муаммолари	Набиева Дилоро Абдухамидовна , Нурмонова Садоқат	64-68
16	Using Online And Offline Flashcards In Teaching Vocabulary	Kholiqova Khafiza	69-70
17	Teaching A Foreign Language Using The Clil Method	Zukhra Allaberdievna Zulfiqorova	71-76
18	Современная Кровля	Ходжиматова Гульноз Дильшодбек кизи ,	77-80
19	Aggression And Violence, The Factor Of Pedagogical Conflicts, Their Influence On The Educational Process	Tosheva Dildora Iskandarovna, Ergashev Elmirodovich	81-83
20	Elektr Nasoslarning Avtomatlashtirilgan Elektr Yuritmasining Samaradorligi Tahlili	Sattorov Toshpo'lot Ahmad o'g'li, Ahmadov Sarvar Ahror o'g'li, Sattorov Feruz Bahrom o'g'li	84-86
21	The Problems Of Assessing The Quality Of Written Translation	Khayratdinova Azima Miratdin qizi	87-91

IT VA MUSHUK ZOOSEMIZMI O'ZBEK ASARLARI TALQINIDA

Toirova Umida Sobirovna

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek asarlaridagi misollar orqali it hamda mushuk zoosemizmlarining mavzuiy tiplari va tasnifi ko'rsatilgan, uning turli ma'nolari dalillangan. Zoosemizmning it va mushukga xos xususiyatlari sanab o'tilgan va izohlari isbotlangan.

Kalit so'zlar: Onomastika, zoosemizm, zoomorfizm, zoonim, hayvon metaforasi, animalizm.

Kirish

Onomastika tilshunoslikning bir tarmog'i bo'lib, u XX asrning 2– yarmidan boshlab, maxsus predmet sifatida shakllana boshladi. Xususiy nomlar, ularning paydo bo'lish tarixi, vazifalari, rivojlanishini geografik, tarixiy, sosiologik, filosofik, etnografik va psixologik aspektida o'rganadigan onomastika sohasiga doir ko'plab munozaralar yuzaga keldi. Jumladan, rus tilshunosligida A.A.Reformatskiy xususiy nomlarni ikkiga, onomastika va toponimikaga bo'lib o'rgansa, V. D. Bondaletov tilda mavjud barcha nomlarni onomastikaga kiritadi:¹

1. Antroponimlar – inson nomlari (ism, familiya, laqab, taxallus);
2. Toponimlar– geografik ob'ektlar nomlari (daryo, dengiz, okean, tog', shaharlar, qishloqlar, maydonlar, yulduz, planeta, kometa);
3. Zoonimlar – hayvon nomlari (ot, sigir, tuya, it, mushuk, qushlar, baliq);
4. Teonimlar – xudolar, mifologik personajlar nomlari;
5. Ktematonimlar – yunoncha “ktenatos” – buyum, boylik so'zidan olingan bo'lib, u korxonalar, muassasa, tashkilot, tarixiy voqealar, bayramlar, matbuot organlari, nashriyotlar, san'at va adabiyot asarlari, paroxodlar, poezdlar, yer yo'ldoshlari, teatrlar, magazinlar, ayrim predmetlar (to'p, qo'ng'iroq) nomlarini o'z ichiga qamrab oladi.²

Metod

O.V.Raevskaya zoosemizmni hayvon nomi sifatida ta'riflab, hayvon nomlari ko'pincha inson xususiyatlarini belgilash uchun ishlatiladi, degan munosabat bildiradi. Z.Kovecsesning so'zlariga ko'ra, inson xatti – harakatlarining aksariyati, aslida hayvonlarning xatti – harakati nuqtai nazaridan metaforik tarzda tushunilganga o'xshaydi. Bundan tashqari, J. Lakoff va M. Jonson singari tadqiqotchilar insonning fikrlash va xatti– harakatlarini boshqaradigan oddiy konseptual tizimning aksariyati tabiatda metafora ekanligini ta'kidlashadi. Oshxonada tartibsizlik keltirib chiqargan kishidan g'azablanib, uning cho'chqaga o'xshatilishi konseptual metafora qo'llanilishini, ya'ni semantik tuzilishning kognitiv jarayonda voqelanishini ko'rsatadi. Insonlarni hayvonga o'xshatib

¹ Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: 1967. – 62 с.

² Бондаметов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. – 3 с.

metaforik konseptualizasiya qilish jarayonida hayvon tushunchasi inson konsepsiyasiga qaratilgan manba sifatida xizmat qiladi.

Z.Kovecses hayvonlarga oid metaforalar ko‘pincha salbiy ma‘no o‘ttenkasiga egaligini, ayrim istisno holatlardan tashqari, ular insonning salbiy xatti– harakatlariga ishora qiladi deb ta‘kidlaydi.

J.Lakoff va M.Turner zoosemiyani “Great Chain of Being” – “Olamning yaralish zanjiri” metaforasi bilan chambarchas bog‘liq hisoblab, to‘rt qismdan iborat konseptual kompleks sifatida tasvirlashadi:

- the Great Chain of Being – Borliq ning yaratilish zanjiri;
- the Nature of Things – Borliqda mavjud narsalar tabiati;
- the Generic is Specific metaphor – Jenerik (yohud umumiylik) – spetsifik metaforadir;
- the Maxim of Quantity³ – miqdor prinsipi (imkon qadar ko‘p ma‘lumot berish).

J.Lakoff va M.Turner zoosemiya nazariyasini *Achilles is a lion* misoli orqali sharhlab berishadi. Gapdagi birinchi metafora Axilles jasoratining sherga o‘xshatilishi bo‘lsa, ikkinchisi hayvon instinktiga asoslangan inson xarakterining talqin qilinishidir. Sherlar instinktiv xulq– atvorining jasorat sifatida qabul qilishini, ushbu xususiyatni Axillesga nisbatan ishlatilishi, sher va uning “jasorati” o‘rtasidagi munosabatni Axilles va uning jasorati o‘rtasidagi munosabatga yo‘naltirilishi bir– biriga bevosita bog‘liq. Bu yerda metaforik sxemalashni cheklaydigan o‘zgarmaslik prinsipiga ishora qilinadi va zoosemiya hayvon nomlari orqali metafora vazifasida qo‘llaniladi.

G.Milichning ta‘kidlashicha, zoosemiyani anglashda motivasion omillarni tahlil qilishning o‘zi kamlik qiladi. J. Lakoff va M.Turnerlar zoosemiya terminini metaforalik xususiyatini sharhlab, metonimiyalik rolini e‘tibordan chetda qoldirishadi, vaholanki, tabiatdagi har bir narsaning xalq nazdida metonimik ko‘rinishi ham mavjud⁴.

Umuman olganda, J.Lakoff, M.Turner, G.Milichlarning izlanishlarida keltirilgan fikr– mulohazalar asosida zoosemiya ham metafora ham metonimiya vazifasida ishlatiladi, degan xulosa qilish mumkin.

S.Marsa hayvonlar mavzu doirasi kengligi, ularning xalq madaniyatiga bog‘liqligini inobatga olib, ularni 1) yashash joyi; 2) tashqi ko‘rinishi; 3) xulq– atvor; 4) kishilarga aloqadorligiga ko‘ra tasniflaydi⁵. G. Milich esa hayvonlarning ushbu subdomenlardagi eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlari keyinchalik insonning tashqi ko‘rinishi, intellekti, xarakteri va xulq– atvori bilan taqqoslanadi, asosiy xususiyatlar muhim xatti – harakatlarga olib keladigan narsalar tabiatining kognitiv modelida qo‘llaniladi, *xarakter* axloqning kengroq sohasi hisoblanadi deb e‘tirof etadi. Demak, olimlarning fikrlariga tayanib, hayvonlarning xususiyatlari insonlarga qiyoslanishi ham zoosemiya deb atalishi mumkin.

Z.Kovecses ta‘kidlaganidek, hayvonlar metaforalarining ma‘nosi asosan, salbiy ma‘nolarda kelib, zoosemizmlar semantikasi pejorativlashishga moyil, erkaklar va ayollar turli xil maqomga ega bo‘lganligi sababli, pejoratsiya ikkala jinsga ham bir xil darajada taalluqli emas. Pejorativ semantika tildagi ahamiyatsiz tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, buni J.Xolms ikkala jinsning salbiy va ijobiy stereotiplari, deb ta‘riflaydi, ammo pejorativ semantika deyilganda, ayollarga nisbatan salbiy munosabatni ifodalash jarayonida qo‘llaniladigan usul nazarda tutiladi. Uning ta‘kidlashicha, metaforalarda ayollarni tasvirlash uchun erkaklarga nisbatan ko‘proq tanqidiy birikmalar qo‘llaniladi.

³ Lucija Kovačić Zoosemy and Gender Stereotyping: A Corpus Analysis of Six Pairs of English and Croatian Lexemes.- Zagreb: Diploma Thesis, 2018. — 32 p.

⁴ Ўша жойда

⁵ Kiełtyka, R. and G.A. Kleparski. “The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English”. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – 24 p.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, zoosemizmni salbiy ma'nolar bilan birga, kuchli tanqidiy munosabatni ham ifodalaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

F. Fontecha va J. Katalan, S.Xayns va L.Rodriges kabi olimlar *zoosemiyaga* bag'ishlangan tadqiqotlarida semantik derogasiya referentning jinsi bilan bog'liqligini va odatda ayollarga qaratilganligini ta'kidlashadi. F. Fontecha va J. Katalan ingliz (tulki/vixen, buqa/sigir) va ispan (zorro/zorra, toro/vaca) tillarida ikki juft hayvon so'zlaridagi semantik derogasiyani o'rganib chiqib, har ikki tilda bu so'zlar ayollarga nisbatan ko'proq ishlatishga ishora qiladi, deb aytishadi⁶.

Tilshunoslikda zoonimlarga "*animalizm*", "*zoonim– metafora*", "*zoometafora*", "*zooleksema*", "*zoomorfizm*", "*hayvon komponentli qiyosiy frazeologik birliklar*", "*zoonimik komponentli frazeologik birliklar*", "*zoonimik birikmalar*", "*zoomorfizmlar*", "*hayvon tarkibli qiyosiy frazeologik birliklar*" kabi tushunchalar berilgan.

Zoomorfik metaforalar yoki *zoomorfizmlar* kishilarni metaforik tavsiflovchi nominasiya sifatida ishlatiladigan zoonimlardir. Zoonim terminining asosiy ma'nosi hayvonlar nomi bilan bog'liq, ikkinchi majoziy metaforik ma'nosi aniq konnotativ tushunchaga ega bo'lgan ekspressiv baholash sifatida ishlatiladi. Majoziy ma'noda zoonimlar uchun alohida terminlar ya'ni zoosemizmlar mavjud. Shaxsning majoziy xususiyati va shu bilan birga so'zning birinchi ma'nosi bilan aloqani saqlab qolgan holda E. A. Kasitadze yana bir termin *zoometaforani* ham ishlatadi. U hayvoniy komponentli baholovchi – antroponimik frazeologik birliklarni ham ifodalaydi.

T.E.Povalyaevaning qayd etishicha, lingvistik ekspertiza amaliyotida muayyan shaxsga nisbatan salbiy baholovchi sifatida zoometaforalardan foydalaniladi. Tahlil qilingan metaforalarning aksariyati lug'atlarda salbiy so'kinish, e'tiborsizlik, nafrat, qo'pollik va norozilikni ifodalovchi ma'nolar bilan bog'liq. Shaxs axloqi bilan bog'liq bo'lmagan xulq– atvor xususiyatlari jamiyatda xo'roz – o'ta takabburlik, echki – o'ynoqilik, yosh qiz yoki qizning harakatchanligi misolida ishlatiladi⁷.

Hayvonlarning nomlarini o'rganishda boshqa yondashuvlar ham mavjud. Ular strukturaviy, so'z yasalishi nuqtai nazaridan ham, lingvokulturologik nuqtai nazardan ham ko'rib chiqilgan.

S.S.Ogdonovanning yozishicha, inson tafakkuri dunyoni antropomorfik yoki zoomorfik tarzda aks ettirishga intiladi. *Zoomorfizmlar* hayvonlarning ob'ektiv yoki sub'ektiv sifatlariga asoslanadi, ularga odamlarning tasavvuri va ijodiy tafakkuri xosdir. *Zoomorfizmlar* konnotativ ma'nolar orqali shaxsni tavsiflashi mumkin. Bunda *ayiq* va *filning* konnotativ *bema'ni*, *katta*, *erkak* semalari, *tovuq* va *qo'yning ahmoqlik*, ayol semalari ajralib turadi. Tulki yoshi va jinsidan qat'iy nazar, ayyor, xushomadgo'y odamni tavsiflaydi. *Zoomorfizmlar* so'zlovchining predmetga munosabatini ifodalashi mumkin. Shuning uchun *zoomorfizmlarning* semantik mazmunida ularning affektiv ma'nolarida namoyon bo'ladigan emosional– baholanishni ham ajratish mumkin. S. S. Ogdonova a) tasodifiy zoo– xarakteristika va b) barqaror hayvonot bog'i xususiyatlari kabi tasnifni keltiradi. Olimning fikricha, tasodifiy zoo – xarakteristikada hayvonning har qanday nomi ishlatilishi mumkin, uning stilistik mazmuni kontekst yordamida aniqlanadi, so'z u yoki bu metaforik ma'noga ega bo'ladi (aqli, mehribon odamni it deb atash mumkin); b) barqaror hayvonot bog'i xususiyatlariga ongda mustahkamlangan bo'ri, tulki, ayiq, fil, quyon, eshak kabi hayvonlar bilan bog'liq metaforalar insoniy fazilatlar timsoliga aylanadi.

L.A Kipriyanovanning fikriga ko'ra, *zoosemizm* termini umumiy bo'lib, unga kiritilgan leksemalarning ko'chma ma'no ustuvorligi seziladi.

⁶Lucija Kovačić Zoosemy and Gender Stereotyping: A Corpus Analysis of Six Pairs of English and Croatian Lexemes. Diploma thesis. – Zagreb. 2018. – 20 p.

⁷Маслов А.С. Использование Комплексного Подхода При Исследовании Зоометафор-Инвектив в Современном Русском Языке. - Россия: Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, – Россия – №1 (33), 2014. – 24 p.

Natija:

O‘zbek asarlarida mushuk zoosemizmi o‘z ichiga yuvosh va beozor, erkalashni suyardigan ayol, ahloqi buzuq ayol, qo‘rqoq va nomard, qallob, yolg‘onchi, o‘g‘ri, poyloqchi, yomg‘irda ivib, suvga tushgan mushukka shumshayish ya‘ni xafa bo‘lish kabi ma‘nolarda ifodalanib keladi. Xarakter xususiyatdan tashqari, mushukning holati, harakatlari, tashqi ko‘rinishi insonning holati va harakatiga nisbatan qo‘llaniladi. It zoosemizmi o‘z navbatida xo‘rlash va tahqirlash maqsadida zulmli, rahm – shavqatsiz, malay, vaysaqi, xaromho‘r, qaysar, qopag‘on ma‘nolarini bildirsa, bo‘ri tajovuzkor, rahmsiz, molparast, ochko‘z, qonxo‘r shu bilan birga soddadil, jasur, dovyurak, ziyrak, yovqur, aqlli va dono mazmunlarini ham aks ettiradi

Munozara:

Islom dinida esa masjidga kirishiga ruxsat etilgan yagona hayvon mushuk hisoblanadi. Shuningdek, Muhammad (s.a.v.) ham kiyimlarida mushuk uxlab qolganida, uning uyqusini buzmaslik uchun kiyimlarining o‘sha qismini kesib, keyin o‘rinlaridan turganlari haqida hadislar bor. Bundan tashqari, sahobalardan biri Abu Hurayra (“Mushuklar otasi”) ham mushuklarga mehr qo‘ygani bilan mashhur⁸.

Mushuk zoosemasining turli xil ma‘nolarda qo‘llanilishini misollarda inson xarakter xususiyatlarini ifodalab kelganini misollar yordamida asoslab berishga urinib ko‘ramiz.

-Qarasam Qora ammaning mushugi! Juda yuvosh mushuk-da o‘z ziyam! Dadamga o‘xshaydi! Dadamni mo‘ylovidan tortsam indamaydi, mushukni dumidan tortsam ham jim turadi⁹.

Yozuvchi keltirilgan misolda tinch, sokin beozor odamni tasvirlagan. Bunda mushukning yuvoshligi orqali birovlarga zarar yetkazmaydigan xotirjam inson gavdalantirilgan. Mushuk zoosemasi ijobiy ma‘no kasb etib, insonning yuvoshligi aniq va ravshan ifodalangan.

Pishak –mushuk suyuq ayolday gap, kim qornini to‘yg‘issa bo‘ldi, ketidan ketavaradi. Eshak egasini, pishak bekasini tanimaydi¹⁰.

Bu parchadan, mushuk har doim ham ijobiy ma‘noni ifodalab kelmaydi, salbiy ma‘noda ham ishlatilib, yomon xulqli, buzuq suyuq oyoq ayolga o‘xshatiladi.

– To‘lan, jinnivoy, Zirillamaga borganda ham piqillaverma. Xotining yarim mushuk bo‘lib qopti deb tayoq bilan urib yurmasin¹¹.

Ba‘zi hollarda mushuk bo‘lib qoldi degan iboralarning ko‘p ishlatilishiga duch kelamiz. Bunday hollarda inson o‘g‘ri va aldoqchiga tenglashtiriladi. Chunki mushuklarning o‘g‘irlik odati kelib chiqishga bevosita bog‘liq.

Quyidagi misolda mushuklarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatni keltirib o‘tamiz.

— *Bilaman, qizim, bilaman. Mushuk arslondan paydo bo‘lgan.*

— *Unda nimaga arslonmas, mushuk bo‘lib qolgan?*

— *E, buning tarixi juda uzun, qizim. Ilgari mushuk ham arslon bo‘lgan ekan. Hammalari bitta o‘rmonda inoq– ahil yasharkan. Kunlardan bir kuni o‘rmonda arsloncha tug‘ilib, unga «Mushuk» deb nom berishibdi. Mushuk ulg‘aygan sayin o‘rmonda buyumlar yo‘qolaveribdi. Keyin, bilishsa, o‘sha*

⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_va_mushuklar

⁹ Ў.Хошимов. “Умр савдоси”. – Тошкент: “Шарк нашриёти матбаа концерни бош тахририяти”, 1998. –23 б.

¹⁰ Т.Мурод. Отамдан колган далалар. – Тошкент: Шарк нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 1994. –200 б.

¹¹ С.Ахмад “Уфк”. – Тошкент: Ф.Фулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. –167 б.

Mushuk degan arsloncha o'g'irlarkan. Mushukni insofga chaqirishmoqchi bo'lishganda, u shunaqangi lo'lilik qilibdiki, asti qo'yaverasan. Arslonlar qarashsaki, bu Mushuk insofga yurmaydigan. O'g'ri desa o'g'ri, qo'rqoq desa qo'rqoq, nomard desa nomard. Xullas, hech bir tuki arslonga o'xshamaydigan. Shundan keyin qari arslonlar kengashib: «Buning turqi bo'lakcha, ikki dunyoda chin arslon bo'lmaydi. Pushtimizni bulg'aydi», degan qarorga kelib: «Shu turishingda unib-o'sma», deb qarg'abdilar. Qarg'ish tegib, mushuk o'smay qolgach, uni o'rmondan haydab yuboribdilar. Shundan beri arslonlar ichida nomardlar, o'g'rilar paydo bo'lsa, «Mushuk bo'l», degan qarg'ishga uchrab, mushukka aylanib qolaverar ekan¹²...

Ko'rinib turibdiki, mushuk zoosemasida o'g'rilik, qalloblik, yolg'onchilik, lo'lilik kabi salbiy xususiyatlar mujassam. Mushukning kelib chiqish tarixi uning illatlariga borib taqaladi. Mushukning salbiy xususiyatlari xarakter domeniga kiritilib, unda inson illatlari ochib berilgan. Shu bilan birga uning qallobligi va nomardligi ham ta'kidlanib o'tilgan.

Xotin zoti borki bari shirin gap,erkalashni yoqtiradi.Ba'zi xotinlar mushuk tabiat , shirin so'z bilan terisini silasangiz xurрак tortadi¹³.

Bu misolda mushuk tabiat ayol e'tiborni, mehrni kutadigan, doimiy shirin so'z va e'zozlashni xush ko'radigan ayollarni ifodalagan. Mushukka qanchalik mehr ko'rsatilsa, u shunchalik o'z egasini ardoqlab, uning oldidan nari ketmaydi. Ba'zi ayollar ham mushuk tabiat bo'lib, erkalanish va suylashni xush ko'radi. Tahlil qilingan mushuk zoosemasi orqali inson xarakteri ochib beriladi.

O'zbek yozuvchilarining asarlarida mushuk ko'zlari ham tasvirlangani kuzatiladi.

Eshikda balxlik zanjisifat saroybon turar, saroybon mushuk ko'zlariga o'xshagan ko'k ko'zlariga taajjub yo'q¹⁴.

Qosim o'g'rining bo'yi unikidan sal pastroq bo'lib,qorachadan kelgan mushuknikiga o'xshash ko'zlar doim o'ynab turardi¹⁵.

Mushuk zoosemasi orqali xarakteri va tashqi ko'rinishi, xatti harakati va holatini ifoda etuvchi turli misollarni ham keltirish mumkin. Bu esa xarakter va ko'rinish domeni bo'lib, mushuk ko'zlari inson ko'zlariga o'xshatiladi.

Eshikning bir tabaqasi ochildi-da,kimdir Olimjonni yoqasidan mushuk boladek changallab uloqtirib yubordi. Olimjon mushukdek g'ujanak bo'lgancha pishillab uxlari yotardi¹⁶.

Keltirilgan parchani tahlil qilar ekanmiz, mushuk semasida insonning mushuk xatti-harakati va holati orqali ifoda etilganini guvohi bo'lamiz. Insonning changallab olish kabi harakati mushuk bolasiga qiyoslanib, uning uning g'ujanak bo'lib uxlashi mushuk holatiga o'xshatilgan. Demak mushuk zoosemasi xarakat va holat domeni orqali tasvirlangan.

Saidiy bir kuni ishdan ancha erta-qorong'i tushar-tushmas qaytib keldi. Yotoqda hech kim yoq. Tinch. Eshikni biron xuddi mushuk tatalaganday tiqirlatdi¹⁷.

Mushukning harakati sokin va tinch muhitni buzishga sabab bo'ladi, mushuk tiqirlashi orqali uning harakati aks ettiriladi.

Oltinoy mushukday abjirlik bilan sakrab,o'rnidan turdida,o'zini mashinadan otdi.¹⁸

Akbarali mushukdek sapchib, yo'lakka borib qoldi. Ha, namuncha suvga tushgan mushukday shumshayib qolding? — deb, hazillashdi¹⁹.

¹² T.Malik Devona qissa www.ziyo.uz.kutubxona — 3 b.

¹³ Мирмухсин “Асарлар”. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972 йил. —176 бет.

¹⁴ О.Ёкубов Улуғбек хазинаси. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 й. —270 бет.

¹⁵ Баходир Мурад Али. Кўктуңликлар: Кисса ва хикоялар. —Тошкент.: Ёзувчи, 1991. — 51 бет.

¹⁶ Ў.Ҳошимов “Умр савдоси”. —Тошкент: “Шарк нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. —120 бет.

¹⁷ А.Қаҳҳор “Сароб” — Тошкент : «Шарк» НМК Бош таҳририяти, 1995. —63 б.

¹⁸ О.Ёкубов, Адолат манзили: (Танланган асарлар). — Т: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996. —120 бет.

¹⁹ О.Ёкубов, Адолат манзили: (Танланган асарлар). — Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996. —121бет.

Keltirilgan misollarda mushukning xatti – harakati tasvirlangan. R. Kieltika nazariyasiga ko‘ra insonlarning hatti harakati zoosemiya orqali ifoda etilib, u xulq atvor domeniga taaluqlidir.

Samandarov yomg‘irda ivib botgan mushukdek shumshayib qolgan. -Ha, namuncha suvga tushgan mushukday shumshayib qolding? — deb, hazillashdi²⁰.

Zanbil ostida xanjarni qisimlab, go‘yo sichqonni poylagan mushukdek hujumga hozirlanib yotar edi. Tumshug‘ini yerga tirab yotgan mushukdek bo‘lib, Otabek ularni kuzatar edi²¹.

Ayvondagi kampirning chig‘irig‘idan chiqqan tovush mushuk bola miyovlagan kabi hujraga eshilib turar edi. Bizning fojiamizning asl omili Homid esa mushuk kabi o‘yin bo‘lg‘an, uni kulib turib, o‘ynab turib tilimlagan edim²².

Badiiy asarlardan keltirilgan mazkur misollarda mushukka xos bo‘lgan xususiyat, suvga tushgan mushuk insonga ko‘chishi bilan undagi xafa bo‘lish holati, mushuk kabi mag‘lubiyatga uchragan kishi nazarda tutiladi. Tumshug‘ini yerga tirab yotgan mushuk yoki sichqonni poylagan mushuk orqali dushmani poylab o‘tirgan poyloqchi abjir, ehtiyotkor kishining ifodalanishi, holat zoosemasiga misol bo‘la oladi.

Butalar orasida yashirinib yotgan qasoskorlar yovvoyi mushukdek sapchib yopishib, yo xanjar, yo qilich urib, o‘ldirib ketishardi. Temur Malik bilan Ibrohim Do‘lday qolgan qaroqchilarni quvlashgan edi, ular mushukdek to‘rt tomonga qochishdi²³.

Yuqoridagi misollarni tahlilga tortar ekanmiz, har bir mushuk semasining inson hatti-harakatlarini ifodalab kelgani ayonlashadi. Birinchi misrada mushukdek hamla qilib, tashlanishi yovvoyi qasoskor mushukdek, ikkinchisida esa dushmanlarning qo‘rqanidan to‘rt tomonga qochib ketgani, keyingisida chekkada pisib o‘tirib, dushmani poylagan kishilar aks ettiriladi.

«Chingizxon semiz, yumaloqdan kelgan, jussasi kuchli odam. Qiyiq ko‘zlari mushuknikidek yonardi. U mo‘g‘ul tilidan boshqa tilni bilmagan, yozishni ham bilmasdi...»²⁴.

Mushuk semasi inson xatti – harakatidan tashqari, tashqi ko‘rinishni ham ifodalab kelib, Chingizxonning qiyiq va qisq ko‘zlari mushukning ko‘zlariga o‘xshatiladi. Mushuk zoosemasi orqali Chingizxon tashqi ko‘rinishi yoritib berilgan.

Otasi marhum behad ta‘magir edi. It yeganini qusib, o‘g‘li undan ham rasvoroq chiqdi²⁵.

Ushbu misolda it zoosemasi salbiy ma‘noda ifodalaniib, itning karakteri insonlar misolida keltirilgan, itning farzandi ham undan qolishmaydigan Itning bolasi ham undan qolishmaydigan it bo‘lishi ta‘kidlangan. Johil va ezgulikdan yiroq inson tabiati gavdalantirilgan.

Sultonali “Mulla Abdurahmondan non yemaymiz, sizga qarshi qattig‘ quturg‘an ikki itimiz bor edi, endi uchinchisini o‘zingiz keltirganga o‘xshaysiz²⁶.

–Qoch dushmanning itbachchasi-dedi zakunchi. Joni itdan ham savil ekan²⁷.

–Qaysi To‘g‘onbek?-Yangi tug‘ilgan itlardan²⁸.

Quloq burnini kesib tashlashdi. It azobiga solishdi²⁹.

–Ko‘ksiga pichoq sanchibdi-dedi barak navbatchisi.

–Battar bo‘lsin, Itga it o‘limi³⁰.

²⁰ И.Султон “Асарлар”. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2017 й. – 201 бет.

²¹ А.Қодирий “Ўтган кунлар”. – Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. – 142 бет.

²² А.Қодирий “Ўтган кунлар”. – Тошкент: Янги нашр 2019 йил. – 255 бет.

²³ Мирмухсин Темур Malik. – Тошкент: Хилол нашриёти, 2018 й. – 412 бет.

²⁴ Мирмухсин .Темур Malik. – Тошкент: Хилол нашриёти, 2018 й. – 280 бет.

²⁵ А.Қодирий “Меҳробдан чаён”. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 95 бет.

²⁶ А.Қодирий “Меҳробдан чаён”. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 166 бет.

²⁷ Ў.Хошимов “Икки эшик ораси”. – Тошкент: Шарк нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 1998. – 471 бет.

²⁸ Ойбек Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 79 бет.

²⁹ Ойбек Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 25 бет.

Yozuvchi salbiy illatlarni tasvirlashni maqsad qilsa, it ramzini yomon soʻzlar bilan bogʻlab, insonning yomon xususiyatlarini ochib beradi. Birovning iti koʻchma maʼnoda, birovning manfaatini oʻylab ish tutadigan, hamda zulmlanishi va jabrlanishiga qaramasdan himoya qiladigan malay sifatida tasvirlanadi. Oʻzbek xalqi mentaliteti va madaniyatiga xos xalq orasida keng ishlatiladigan Itga it oʻlimi iborasi oʻz fikriga ega boʻlmagan, birovni aytganini soʻzsiz bajaradigan, zulmkor, rahmsiz insonni anglatadi, hamda ularning hattoki oʻlimi ham xorlik va zorlikda oʻtishiga bir ishoradir. F.J.Tornton ingliz tilidagi GOOD and EVIL soʻzining semantik tahlilida yaxshi va yovuz odamlar uchun ishlatiladigan hayvon terminlarining semantikasini sinchkovlik bilan oʻrganadigan tadqiqotni amalga oshirgan. Bu asarlardan keltirilgan misollar, insonlarga nisbatan turli xil metaforik iboralar qoʻllanilgan. S.Ch. Xsiehning fikricha har kuni ongli va ongsiz ravishda qoʻllaniladigan metaforalarda muayyan jamiyat vakillarining fikrlash usullari va madaniy oʻziga xosliklari, muallifning kuzatishlariga asoslanib, zoo metaforalarning aksariyati hayvonlarning tashqi koʻrinishi, xatti – harakati, xarakterining konseptual oʻlchamiga qarab tuzilgan.

*Boʻri polvon ichini it tirnadi*³¹.

*Qishloq qizlari yor-yor aytib Lutfinisani Margʻilon tarafga, kuyovnikiga kuzatib boradilar. Azizxon shularni oʻylaganda ichini it talagandek ingrab yuborar edi*³².

Keltirilgan parchada oʻz birodarlari va vatandoshlariga hasad qilgan, doimiy vajohat bilan birovlarining oʻlimiga sabab boʻlgan vatanfurushlar tanqid qilinadi. Bundaylarning jasadi ham nafrat va laʼnat bilan dafn etiladi.

*Hammasi oq poshshoning qopagʻon itlari! Itning feʼli oʻzlariga maʼlum*³³.

*Behuda ovora boʻlasiz, buvi, -dedi Dildor. It akilladi qoʻydida*³⁴.

Qopagʻon it orqali insonlarga birdan hamla qilib, zarar va aziyat yetkazadigan itlar nazarda tutiladi. Bunda oʻz haddini bilmay, chegaradan chiqqan insonning birovga qilgan yomonligiga qiyoslanadi.

Itning akillashi inson xarakteriga koʻchib, bekorga gapiradigan, ogʻziga kelgan har gapni gapiradigan inson tushuniladi.

*Sen juvonnargdan qanday umidlari bor edi onangning. Sening oʻrningda it boqsam boʻlmasmidi?*³⁵.

*–Qoʻyaveringlar uning oʻzi eʼtibordan chetda qolib, itdek oʻlib ketadi, dedi Hoji Porso Meʼmorga qarab*³⁶.

Yozuvchilar it zoosemasini azob uqubat maʼnosida qoʻllab, it azobi, it kunini solmoq, it azobi, itga it azobi singari iboralarni qoʻllashadi. Ichimni it tirnadi va it tataladi iboralari orqali yozuvchi inson tashvishi sabab bezovtalanishi, uning tashvishli holati yoritiladi. Bundan tashqari ularning vaysaqiligi ham itning akillashi bilan qiyoslangan. Itning ijobiy jihatlari esa alohida taʼkidlanib, uning vafodor va sadoqatliliigi inson farzandining sadoqatidan ustun qoʻyilgan. It boqsa, egasiga gʻamhoʻrlik qilib, sadoqat bilan xizmat qiladi deb sadoqatli kishilar nazarda tutilgan. Shu bilan birga eʼtibordan qolgan insonga nisbatan itdek oʻlim topadi yaʼni it kabi xor boʻladi va it yiqilish esa koʻpincha pahlavonlarga nisbatan qoʻllanilgan .

*Domda it egasini tanimaydi*³⁷.

³⁰ С.Ахмад “Қорақўз Мажнун” ҳикоялар. – Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. –24 бет.

³¹ Т.Мурод От кишнаган оқшом. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 2012. – 36 бет.

³² С.Ахмад “Уфқ”. –Тошкент: Ғ.Ғулум Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. –286 бет.

³³ М.Исмоилий . Фарғона тонг отгунча. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2010 йил. – 96 бет.

³⁴ Ойбек. Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 66 бет.

³⁵ С.Ахмад “Уфқ”. –Тошкент: Ғ.Ғулум Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. – 290 бет.

³⁶ Мирмуҳсин “Меъмор”. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 2001 йил. – 67 бет.

³⁷ Ў.Ҳошимов “Тушда кечган умр”. – Тошкент: “Ўқитувчи”нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –21 бет.

*Robiyaday qizga olti yildan beri ‘it’ tegmay yurishi mumkin emasligini u ilgari ham xayolidan o‘tkardi*³⁸.

*Qizlarnig bu itdek poyloqchisini ko‘plashib uyg‘otdilar*³⁹.

Pastkash, qabih niyatli insonlar ham it zoosemiyasi orqali ifodalanadi. O‘zini hammadan ustun qo‘yib, o‘zgalarni nazar pisand qilmaydigan, odamiylik, andishadan uzoqlashgan, salomini zo‘rg‘a beradigan, o‘zidan o‘zgani o‘ylamaydigan insonlar ham inson siyratidagi hayvonga tenglashtiriladi. It temay yurishi kabi iborasi esa nopok va harom bo‘lgan ma‘nolarda ishlatilgan. Itdek poyloqchi metafora sifatida qo‘llanilib, egasini poylash, qo‘riqlash ma‘nosini anglatgan.

*Itlikni shu yerda qoldirib, uning yoniga odam bo‘lib qaytasiz. Mingboshi odam shaklidagi it bo‘lgani uchun birdan hammasiga chang soldi. Kofir bilan itning farqi yo‘q. Itdan qochmaysizmi? Shunday qilib kofirdan ham qochmasangiz bo‘ladi*⁴⁰.

“Buning nimasiga uchdim— a, qosh— ko‘zini demasa, bir qop go‘sh— ku bu! Ha— a, biz erkaklarning itdan hech farqimiz yo‘q!

— Bu erkaklik emas, itlik!

*— Xuddi alam qilayotganday gapirasiz... — Ha, iymonsizliging, itliging menga alam qila yapti”!*⁴¹.

Itlik qilish majoziy ma‘noda insoniyligini umuman yo‘qotgan inson siyratini ochib bergan. Bundan tashqari itlik— iymonsizlik semasida xaromxo‘rlikni anglatib, xarom yo‘lga kirgan erkaklar nazarda tutilgan.

*Tunov kuni fotihaga kirganda Vohid Mirobidov uning ahvol ruhiyasini ko‘rib, yuragi zirqirrab ketgandi, biroq it fe‘lini ko‘rib, uniki ham tutdi*⁴².

*Kasb- koring savdogarlik—itning kasbi*⁴³.

O‘ta qaysar har qanday holatda ham o‘z bilganidan qolmay, o‘z tamoyiliga asosan ish tutadigan insonlar it fe‘lli kishilar deb yuritiladi. Tijorat ya‘ni savdogarchilik bilan shug‘ullanadigan shaxs doimiy u shahardan bu shaharga borib kelishi bois odamlarning kasbi ham itning kasbiga qiyos qilingan. Chunki yo‘ldagi azob — uqubatlar, tashvishlar it azobiga o‘xshatilgan.

Xulosa:

O‘zbek asarlari talqinida it va mushukning zoosemizmlarining turli xil ma‘no kasb etishi yozuvchilar yaratgan asarlarda yaqqol ko‘ringan. Demak, o‘zbek romanlarida mushuk yuvosh va beozor, erkalashni xush ko‘ruvchi, shu bilan birga qallob, og‘ri, aldoqchi, lo‘li, qo‘rqoq, nomard, ayollarga nisbatan yengiltak ma‘nolarini anglatib keladi. It zoosemizmi johil, malay, zulmkor, rahmsiz, vatanfurush, qaysar, xaromxo‘r, iymonsiz, qopag‘on, vaysaqi kabi salbiy ma‘nolarda qo‘llanilgan. It zoosemizmi qo‘llanilgan iboralar xo‘rlash xususiyatini bildirib, insonlarni kamsitish va tahqirlashda ishlatilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Реформатский А.А. Введение в языковедение . — М.: 1967. — 62 с.
2. Бондаметов В.Д. Русская ономастика. — М.: Просвещение, 1983. — 3 с.

³⁸ П.Кодиров “Юлдузли тунлар” . — Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. — 227 бет.

³⁹ А.Чўлпон “Кеча ва кундуз”. —Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. —29 бет.

⁴⁰ А.Чўлпон “Кеча ва кундуз”. — Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. —287 бет.

⁴¹ Н.Норкобилов “Дашту далаларда” . — Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. —196 бет.

⁴² О.Ёқубов. Диёнат: Роман. — Т.: «Шарқ» НМК Бош тахририяти, 1998. —291 б.

⁴³ М.Осим “Ўтзор” —Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. —30 бет.

3. Lucija Kovačić Zoosemy and Gender Stereotyping: A Corpus Analysis of Six Pairs of English and Croatian Lexemes.- Zagreb: Diploma Thesis, 2018. – 32 p.
4. Kiełtyka, R. and G.A. Kleparski. “The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English”. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – 24 p.
5. Lucija Kovačić Zoosemy and Gender Stereotyping: A Corpus Analysis of Six Pairs of English and Croatian Lexemes. Diploma thesis. – Zagreb. 2018. – 20 p.
6. Маслов А.С. Использование Комплексного Подхода При Исследовании Зоометафор-Инвектив в Современном Русском Языке. -Россия: Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, – Россия – №1 (33), 2014. – 24 p.
7. Ў.Ҳошимов. “Умр савдоси” . – Тошкент : “Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти”, 1998. –23 б.
8. Т.Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент : Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 1994. –200 б.
9. С.Аҳмад “Уфқ” . – Тошкент: Ғ.Ғулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. –167 б.
10. Т.Малик Devona qissa www.ziyo.uz.kutubxona – 3 б.
11. Мирмуҳсин “Асарлар”. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972 йил. –176 бет.
12. О.Ёқубов Улуғбек хазинаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 й. –270 бет.
13. Баходир Мурод Али. Кўктўнликлар: Кисса ва ҳикоялар. –Тошкент.: Ёзувчи, 1991. – 51 бет.
14. Ў.Ҳошимов “Умр савдоси”. –Тошкент: “Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 1998. –120 бет.
15. А.Қаҳҳор “Сароб” - Тошкент : Шарқ. НМК Бош тахририяти, 1995. –63 б.
16. О.Ёқубов, Адолат манзили: (Танланган асарлар). — Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996. –120 бет.
17. И.Султон “Асарлар”. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2017 й. – 201 бет.
18. А.Қодирий “Ўтган кунлар” . –Тошкент:Янги нашр, 2019 йил. –142 бет.
19. Мирмуҳсин .Темур Малик. –Тошкент: Ҳилол нашриёти, 2018 й. –280 бет.
20. А.Қодирий ”Меҳробдан чаён”. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. –95 бет.
21. Ў.Ҳошимов “Икки эшик ораси” . – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 1998. –471 бет.
22. Ойбек Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2019. –79 бет.
23. С.Аҳмад “Қорақўз Мажнун” ҳикоялар. – Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. –24 бет.
24. Т.Мурод От кишнаган оқшом. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 2012. – 36 бет.
25. С.Аҳмад “Уфқ”. –Тошкент: Ғ.Ғулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. –286 бет.
26. М.Исмоилий . Фарғона тонг отгунча. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2010 йил. – 96 бет.
27. Мирмуҳсин “Меъмор” . – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти, 2001 йил. – 67 бет.
28. Ў.Ҳошимов “Тушда кечган умр”. – Тошкент: “Ўқитувчи”нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –21 бет.

29. П.Қодиров “Юлдузли тунлар” . – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 227 бет.
30. А.Чўлпон “Кеча ва кундуз”. –Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. –29 бет.
31. Н.Норқобилов “Дашту далаларда ” . – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. –196 бет.
32. О.Ёкубов. Диёнат: Роман. - Т.: Шарқ. НМК Бош тахририяти,1998. –291 б.
33. М.Осим “Ўтроп” –Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. –30 бет.
34. Toirova, U. (2021). Maqollarda Zoosemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi talqini. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1953
35. Toirova, U. (2022). Analysing of Cat Zoosemy in the Uzbek and English Works. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 14(14). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/68
36. Toirova, U. (2023). THE DESCRIPTION OF LION ZOOSEMY IN UZBEK'S NOVELS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9751
37. Toirova, U. (2021). The interpretation of zoosemy through the symbol of Monkey in the stories of N.Eshonqul "Maymun yetaklagan odam(The Man Leading the Monkey) and W.W.Jacob's "The Monkey's Paw" Toirova Umida Sobirovna A teacher of English literature department Bukhara. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1952

Другие форматы библиографических ссылок

38. Toirova Umida Sobirovna. (2023). THE DESCRIPTION OF LION ZOOSEMY IN UZBEK'S NOVELS. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 11, 36–45. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajrhss/article/view/580>
39. Rakhimovna, R. D. (2023). PSYCHOLOGY IN LITERATURE. Open Access Repository, 4(03), 275-278.
40. Mukhsinovna, Akhmedova Dilsora. "Meaning Structure of Moving Verbs in English and Uzbek." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 8 (2022): 162-164.